



“ЖАҲОН МАТБУОТ
ЭРКИНЛИГИ – ОАВ
ДАВЛАТ ВА ЖАМИЯТ
ҲАЁТИДАГИ РОЛИ”

*илмий-амалий анжумани
мақолалар тўплами*



Toshkent – 2021

**RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR
KENGASHI**

*3 май – “Жаҳон матбуот эркинлиги куни” деб эълон қилинганлиги муносабати билан
Республика ёш олимлар кенгаши ННТ лойиҳаси*

1991 йил ЮНЕСКО Бош конференциясининг йигирма олтинчи сессияси тавсиясига кўра, 1993 йил 3 май Жаҳон матбуот эркинлиги куни деб эълон қилинди. Шу йилдан бошлаб, бутун жаҳонда ҳар йили 3-май – матбуот эркинлигининг асосий тамойиллари нишонланаш, матбуот эркинлиги ташаббусларни рағбатлантириш ва ривожлантириш ҳамда бутун дунё бўйлаб матбуот эркинлиги ҳолатини баҳолаш санаси сифатида нишонланиб келинмоқда.

Бугун мамлакатимизда “Янги Ўзбекистон – янгича дунёқараш”ни шакллантиришда оммавий ахборот воситаларининг ўрни ва аҳамиятини ёритиб бериш мақсадида Республика ёш олимлар кенгаши ННТ ташаббуси билан “Жаҳон матбуот эркинлиги – ОАВ давлат ва жамият ҳаётидаги роли” мавзусида илмий-амалий анжуман ўтказилади.

Конференцияда қуйидаги шўьбалар фаолият кўрсатади:

1-шўьба: ОАВ: давлат ва жамият ўртасидаги мувозанатни сақлаш воситаси.

2-шўьба: ОАВ – жамоатчилик назоратининг таъсирчан тизими.

3-шўьба: Жамиятни демократлаштиришда ОАВнинг роли.

4-шўьба: ОАВни ислоҳ қилишда замонавий тенденция ва устувор йўналишлар.

5-шўьба: Ўзбекистонда профессионал журналистика соҳасидаги тажриба ва ютуқлар.

Tahrir hay’ati:

Saidova Sayyora Alisher qizi – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

Fotima Tohirova

Dizayner:

Ulug‘bek Saidov

To‘plamga Respublika Oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilar, doktorant, pedagoglar, magistrant va talabalarning maqola va tezislari kiritilgan.

*Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma ma’lumotlar aniqligi
uchun mualliflar javobgar.*

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O‘ZBEKISTONDA SHAKLLANAYOTGAN FUQAROLIK JAMIYATINING MEXANIZMLARIDAN BIRI SIFATIDA

Qalandarov Hamza Hamroqul o‘g‘li

*Buxoro davlat universiteti Milliy g‘oya,
ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrası o‘qituvchisi.*

Ommaviy axborot vositalari – jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolar erkinligini ta‘minlashning muhim shartidir. Demokratik islohotlarni hayotga tatbiq etish, yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati katta. O‘zbekistonda ham siyosiy hokimiyat va fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, bog‘lab turuvchi, ular orasidagi shaffoflikni ta‘minlab beruvchi vosita- “ko‘prik” vazifasini bajaruvchi ham ommaviy axborot vositalaridir.

Mamlakatda so‘z erkinligining, xolis va haqqoniy axborot beruvchi Ommaviy axborot vositalarining mavjud bo‘lishi demokratiyaning umumbashariy tamoyillaridandir.

Mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘z oldiga demokratik fuqarolik jamiyati barpo etish vazifasini qo‘ygan O‘zbekistonda ham istiqlolning dastlabki yillaridanoq erkin ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur bo‘lgan huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar shakllandi. Erkin OAVni rivojlantirmay turib, fuqarolik jamiyati qurish va inson erkinligi, huquqlarini ta‘minlash mumkin emas. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda so‘z va matbuot erkinligini ta‘minlash masalasi alohida o‘rin egallashini nazarda tutib O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov shunday degan edi: «Jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi eng muhim ustuvor yo‘nalish – bu inson huquqlari va erkinliklarini, so‘z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o‘tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta‘minlaydigan demokratik tamoyillarni so‘zda yoki qog‘ozda emas, amaliy hayotda joriy qilishdir, desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi» [2;30].

O‘tgan yillar davomida axborot sohasini liberallashtirish, so‘z erkinligini ta‘minlash borasida keng qamrovli islohotlar, ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada axborot vositalari faoliyatiga oid mukammal huquqiy baza yaratilganligini va u insonlar uchun axborot olish sohasida erkinlik va huquqlarini ta‘minlashda muhim rol o‘ynayotganligini alohida qayd etish zarur.

Avvalo, mamlakatimizda axborot sohasida olib borilayotgan siyosat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan ommaviy axborot vositalari erkinligi va qonunlarga muvofiq faoliyat yuritishi har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligiga, hamda o‘zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekanligi haqidagi me‘yorlarni izchillik bilan va to‘laligicha ta‘minlanishi asosida amalga oshirilishini qayd etish zarur.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarning tahlili bu sohaga oid huquqiy bazani takomillashtirish izchil va tizimli tarzda amalga oshirib borilganligini ko‘rsatmoqda. O‘tgan yillarda mamlakatimizda yaratilgan huquqiy makon va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida bosma nashrlar soni ko‘paydi, xususiy gazeta va telestudiyalar tizimi yuzaga keldi.

Jamiyatni tubdan isloh qilish, asrlar mobaynida shakllanib qolgan tushunchalarni sindirish, hur fikrlilikni turmush tarziga aylantirish maqsadida ana shunday qonunlarning qabul qilinishi O‘zbekiston uchun katta siyosiy, madaniy, qolaversa, huquqiy voqea bo‘ldi. Mustaqillik yillarida qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”(2007 yil 15 yanvar “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”(1997 yil 24 aprel), “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”(1997 yil 24 aprel), “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”(2002 yil 12 dekabr), “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida” (1996 yil 30 avgust), “Mualliflik huquqi

va turdosh huquqlar to‘g‘risida” (2006 yil 20 iyul), “Reklama to‘g‘risida” (1998 yil 25 dekabr), “Axborotlashtirish to‘g‘risida” (1993 yil 7 may), “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi (1999 yil 20avgust) qonunlarda jamiyat a‘zolarini xolisona, haqqoniy va xilma-xil axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish kabi hayotiy talablar o‘z aksini topgan edi. Ushbu qonunlarda har bir fuqaroga axborot olish kafolatlanishi va davlat tomonidan himoya qilinishi kabi me‘yorlar alohida belgilab qo‘yilgan.

So‘nggi yillarda bu boradagi islohotlar yanada jadallashdi, mamlakatimizda so‘z erkinligini ta‘minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu bois, ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat o‘rtasida sifatli muloqotni yo‘lga qo‘yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash borasida keng ko‘lamli islohotlar o‘tkazilmoqda.

So‘nggi yillar mobaynida OAVning soni va sifati keskin ortib bormoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko‘rsatmoqda. [4] Birgina O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi telekanallarning bir sutka davomidagi umumiy efir vaqti 616 soatni tashkil etmoqda. Holbuki, mustaqillikdan oldin bu raqam bor-yo‘g‘i 48 soatga teng edi, xolos.

E‘tiborga molik jihati shundaki, ommaviy axborot vositalarining tarkibi ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Buni yurtimizdagi barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari ekani ham tasdiqlaydi. Shuningdek, diniy-ma‘rifiy sohada faoliyat yurituvchi OAVlarga ham e‘tibor qaratilmoqda. 2017 yil 13 sentyabr. «O‘zbekiston» teleradiokanalining «Hidoyat sari» studiyasi va Toshkent Islom universiteti «Ziyo media markazi» faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. 2017 yil 6 dekabrda esa O‘zbekistonda ilk bor islomiy “Azon FM” onlayn radiosi faoliyat boshladi.

Eng tezkor axborot vositasi – Internet hayotimizga tobora chuqur kirib bomoqda. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshiq va ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko‘rsatmoqda, ushbu yo‘nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e‘tiborga sazovordir. Albatta, bunday natijalarga erishishda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish masalasi davlatimiz va jamiyatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelayotgani hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Ana shunday e‘tibor tufayli o‘tgan davrda jurnalistlarimiz uchun faoliyat maydonini kengaytirish, ularning huquq va manfaatlarini ta‘minlash maqsadida ko‘p ishlar qilindi. Jumladan, matbuot va ommaviy axborot vositalarini liberallashtirish va rivojlantirish, so‘z erkinligini ta‘minlashga qaratilgan, demokratik talab va standartlarga to‘la javob beradigan 10 ga yaqin qonun hujjati qabul qilinib, bu borada mustahkam huquqiy baza yaratildi.

O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, shuningdek Xalqaro press-klub kabilar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda kitob mahsulotlarini nashr qilish va tarqatish tizimi samaradorligini oshirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish

masalasiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Hozirda yurtimizda 100 dan oshiq nashriyot, 1 ming 760 ta matbaa korxonasi, minglab ijodiy va texnik xodimlar faoliyat olib bormoqda. Har yili 7 tilda 60 million nusxadan ortiq kitob chop etilmoqda.

Xulosa, sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mustaqillik yillarida soʻz erkinligini taʼminlash borasida keng koʻlamli islohotlar olib borildi. Ommaviy axborot vositalarining axborot vositalari faoliyatiga oid mukammal huquqiy baza yaratildi.

Bugungi kunda ham OAVning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirish yoʻlidagi islohotlar izchil davom etmoqda. Hozir OAV nafaqat jamiyatni axborotdan xabardor qilish vositasi sifatida, balki jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan davlat faoliyatini nazorat qilish vositasida bir qator vazifalarni amalga oshirmoqda. Ijtimoiy fikrni shakllantirish va rivojlantirish, davlat hamda fuqarolik institutlarining oʻzaro ijtimoiy muloqotida ham OAV muhim vosita sifatida yetakchi oʻrin egallaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda fuqarolar ham OAVda sogʻlom dunyoqarash bilan uning foydalanuvchilariga aylanishlari lozim. Sababi OAV jamiyat hayotining turli-tuman yoʻnalishlarida qabul qilinayotgan huquqiy-meʼyoriy hujjatlar, istiqbolli dasturlar, loyihalarni amalga oshirishda, fuqarolarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati toʻgʻrisida xolis, tezkor va toʻla-toʻkis xabardor qiladi, fuqarolarning davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarida faol ishtirokini taʼminlashga xizmat qilib, bu organlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish xizmat qiladigan vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. – T: —Oʻzbekiston, 2020.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qoʻshma majlisidagi maʼruza. 2010 yil 12 noyabr / I. Karimov. – T: —Oʻzbekiston, 2010. – B. 30.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni //Xalq soʻzi, 2017, 8 fevral.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., 22 dekabr 2017 yil. Xalq suzi gazetasining 2017 yil 23 dekabr № 258 (6952)-soni.
5. “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida Fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari tugrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5430-son Farmoni. -T.: 2018 yil 4 may.
6. Fuqarolik jamiyati asoslari: oʻquv qoʻllanma /A. Jalilov va boshq. – Toshkent, 2015. - B.187
7. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. - T.: Baqtria press, 2015.